

## PEDAGOGIKA DARSALARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Qodirova Feruza

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika yo'naliishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14535307>

### Annotatsiya

Mazkur tezis pedagogika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyalarini o'rghanishga bag'ishlangan. Unda didaktik o'yinlarning tushunchasi, ta'lim jarayonidagi o'rni va samaradorligi ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Didaktik o'yinlarning turlari, ulardan samarali foydalanish texnologiyalari va o'quvchilarning bilim olish jarayoniga ta'siri batafsil tahlil qilingan. O'yin texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

**Kalit so'zlar:** didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiyalar, o'yin texnologiyalar, faol o'qitish usullari, ta'lim samaradorligi, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, rolli o'yinlar, o'quvchilar faolligi.

### Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida samaradorlikka erishish uchun o'qitish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish muhim o'rinni tutadi. Didaktik o'yinlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, bilim va ko'nikmalarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlash imkonini beradi. Mazkur maqola pedagogika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish texnologiyalarini ilmiy asoslash va samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan.

Bolalarning hayotida maktab davri juda katta o'rinni tutadi. Chunki bolalar bog'cha ta'limidan so'ng aynan savodining chiqishi shu davrga to'g'ri keladi. Bu davrda bolalarga har taraflama tushunarli bo'lган mashg'ulotlardan, qiziqarli zamonaviy usullardan foydalanish lozim. Maktab davrida bolaning savodi chiqishi bilan birgalikda uning dunyoqarashi shakllanib, fikrlash doirasi kengayib boradi. Bolalarning bilimini rivojantirishda turli xil o'yinlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Bolalar o'yinlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlab oladilar. ularni o'rganib oladilar. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlar ta'lim sifatini yanada oshirish, bilish jarayonining muvafaqqiyatlari boshqarilishiga turtki bo'ladi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limning keyingi bosqichlarida ham bolalarning bilimini rivojiga turtki bo'lishi mumkin. Dars jarayonida o'zlashtirishi past o'quvchilarning bilimini oshirishga bu o'yinlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi kunda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkillashtirishga e'tibor kuchaymoqda. Pedagogik texnologiyalardan foydalailmoqda. Pedagogik texnologiyalar - ta'limning shakllari, metodlari hamda yangi usullari tarbiyaviy vositalar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalar o'quvchilar imkoniyati va qobiliyatini yuzaga chiqarishda eng mahoratli vositalardan biri hisoblanadi, ular orqali ta'lim jarayonining tezlashishi oshadi. O'quvchilardan mustaqil fikrlash doirasi shakllanadi. Bolalarda mexr muhabbat qiziqish hissi ortib boradi.

Didaktik o'yinlar – ta'lim mazmunini egallash jarayonini osonlashtirish va o'quvchilarning qiziqishini oshirish maqsadida maxsus tashkil etilgan faoliyat shaklidir. Ushbu o'yinlar quyidagilarga yordam beradi:

- O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish;
- Bilimlarni mustahkamlash va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- O'quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish

Didaktik o'yinlarni tanlash va loyihalash: Mavzu va ta'lim maqsadlariga mos o'yin turlarini aniqlash. O'yin qoidalarini aniq va tushunarli shaklda ishlab chiqish.

Pedagogik dars jarayoniga integratsiya qilish: O'yinni darsning kirish, asosiy va yakuniy bosqichlarida qo'llash; O'yinlar yordamida bilimlarni o'zlashtirish va nazorat qilish.

Jadval va kartochka o'yinlari – mavzuga oid tushunchalarni o'zlashtirish;

Rolli o'yinlar – amaliy vaziyatlarni modellashtirish va muammolarni hal qilish;

Elektron o'yin texnologiyalari – zamonaviy kompyuter va multimedia dasturlardan foydalanish.

Didaktik o'yinlar o'quvchilar bilimini chuqurlashtirish bilan birga, ularning dars jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin texnologiyalari qo'llanilgan darslar quyidagi natijalarga olib keladi:

O'quvchilar faolligining ortishi;

Ta'lim materialini tezroq o'zlashtirish;

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samarali muloqotning rivojlanishi.

### Xulosa

Didaktik o'yinlardan foydalanish pedagogika darslarining samaradorligini oshirishda muhim texnologiyalardan biridir. Zamonaviy ta'limda bunday texnologiyalarni o'zlashtirish va o'qituvchilar tomonidan tizimli ravishda qo'llash zarur. Bu nafaqat bilim berishni samarali amalga oshirish, balki yoshlarning ijodiy va mustaqil fikrlashini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

### References:

1. Hasanboyeva M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Jalolov J. Didaktik o'yinlar va ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2020.
3. N. A. Masanova. "Ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni va ahamiyati". Pedagogika jurnali, №3, 2022.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-sonli qarori. "Ta'lim sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish to'g'risida". 2020-yil 23-iyul.